



## **MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'QITISH METODLARI VA XORIJ TAJRIBALARI**

**Yusupova Munavvara Ravshan Qizi**

Andijon Shahar 31-umumiyl talim maktabi ingiz tili o'qituvchi

### **Annatatsiya:**

Ushbu maqolada maktablarda o'quvchilarga chet tillarini o'qitish metodlari va xorij tajribalari asosida o'qitish yoritilib berilgan. Bundan tashqari o'quvchilarga chet tillari o'qitishning ustuvor yo'naliishlari hamda keltirib o'tilgan.

### **Аннотация:**

В данной статье описаны методы преподавания иностранных языков учащимся в школах и преподавания их на основе зарубежного опыта. Кроме того, были упомянуты приоритетные направления обучения студентов иностранным языкам.

### **Abstract:**

This article describes methods of teaching foreign languages to students in schools and teaching them based on foreign experiences. In addition, priority areas of teaching foreign languages to students were mentioned.

**Kalit so'zlar:** o'quvchilar, chet tillari, jahon tajribasi, metodlar, o'qituvchilar, tilga o'rgatish, dars jarayonlari, samaradorlik.

**Ключевые слова:** студенты, иностранные языки, мировой опыт, методика, преподаватели, преподавание языков, учебные процессы, эффективность.

**Key words:** students, foreign languages, world experience, methods, teachers, language teaching, teaching processes, efficiency.

Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, xorijiy tillarni Umumiyl o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan



## Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5<sup>th</sup> September, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

iborat chet til o‘qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish, o‘qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga bo‘lgan extiyojni yanada kuchaytirdi. Umumiyl o‘rtatilimda xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quvchilarning til o‘rganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta’lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining xususiyatidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida turli interfaol usullardan foydalanmoqda. Bizning yo‘nalishimizning maqsadi boshqa fanlardan farqli ravishda noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalarning turli interaktiv usullaridan foydalanib, kichik yoshdagagi o‘quvchilarni erkin fikrplashga tayyorlashdir. Davlat ta’lim standartida har bir sinf uchun, masalan, 1-sinf uchun 200 ta, 2-sinf uchun 250 ta so‘z va iboralarni o‘rgatish maqsadi qo‘yiladi, demak, xorijiy til o‘qituvchisi pedagogik texnologiyalar asosida yuqorida ta’kidlangan maqsadlarni amalga oshirishi ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi «Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 124-sonli qarori boshlang‘ich sinflar uchun xorijiy til o‘rgatishning A-1 boshlang‘ich darajasi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida xorijiy tillarni o‘rgatish mazkur DTSga muvofiq quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

A-1 daraja: boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar);

A-2 daraja: umumiy o‘rtatilim (5–9-sinflar).

**Chet til o‘qitish metodi** – deyilganda chet til o‘rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta“minlovchi muallim va o“quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta’lim usullari yig‘indisi” va “ta“limning yo‘nalishi” ma’nolarida qo‘llanadi. Birinchisi ta’lim nazariyasida jarayon metodlar ma`nosida ishlatilsa, ikkinchi ma’noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o“qitishning tarjima metodi, tog‘ri metod, ongli- qiyosiy metod, an“anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi. Chet til o‘qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo‘llanib kelmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo‘llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo



muloqot – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urfodatlari, qadriyatlari sistemasi va boshqalar tog‘risidagi muloqoti-ma“lumotidir. Mazkur jarayonda o‘quvchi-talabalarni o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o‘zga mamlakat madaniyatini tog“ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim.

**Xorijiy til darslari qanday shakl, metod va vositalar tashkil etilishidan qat’i nazar eng avvalo pedagogik texnologiyalar:**

- pedagogik faoliyat ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarni egallashni ta’minlash;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi lozim.

Bu kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanilganda, o‘quvchilarning bilim salohiyati, fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi; bilim, malaka, ko‘nikmalar yanada shakllanadi va o‘zlari tanlagan fanning asosiy tushunchalarini farqlay oladilar. O‘qituvchi dars jarayonida interfaol usullardan foydalanishdan oldin mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar haqida ma’lumot berib o‘tadi. Shundan so‘ng, o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘zlashtirishlari, takrorlashlari, olgan ma’lumotlari doirasini kengaytirishlari va mantiqiy fikr yuritishlari oson kechadi.

**Singapur tajribasi:** Boshlang‘ich maktabda bolalar 6 yoshdan boshlab o‘qiydilar. Ta‘lim olish hamma uchun majburiy va 2 bosqichga bo‘lingan: asosiy va yo‘naltirilgan. Asosiy bosqich 1-4 sinflardan iborat bo‘lib, bunda tillar, matematika, fuqarolik huquqi asoslari, rasm, musiqa va jismoniy madaniyat o‘rganiladi. 5-6-sinflarda o‘quvchilar o‘zlari ta‘lim olmoqchi bo‘lgan yo‘nalishlarning etakchi sohalarini tanlash huquqiga ega bo‘ladilar. Boshlang‘ich maktabni tamomlagach, o‘quvchilar imtihon topshiradilar va uning natijasiga ko‘ra ta‘limning keyingi bosqichiga o‘tadilar. Singapurda o‘rtta maktab quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi: maxsus, texnik, ekspress-yo‘nalish, akademik, integrallashgan. O‘quvchilar imtihon



natijalari asosida o‘rta matabning maxsus (4 yil), texnik (4 yil), ekspress (4 yil), akademik (5 yil) yoki integrallashgan (5-6 yil) kurslaridan biriga qabul qilinadi. Tabiiyki, har bir yo‘nalish o‘zaro farq qiladi. Maxsus va ekspress yo‘nalishlar 4 yillik ta‘lim kurslarini o‘z ichiga olib, ularda asosan ona tili fani chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi. O‘quvchi unga qo‘sishma tarzda biror chet (fransuz, nemis yoki yapon) tilini o‘rganishi mumkin. Maxsus va ekspress kurslarni tamomlagan o‘quvchilar 2 yillik kollejlarga o‘qishga kirishi mumkin. Singapur ta‘limining yana bir o‘ziga xosligi noodatiy baholash tizimidir. Aksariyat ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi to‘qqiz ballik — A1 — (eng yuqori), F9 — (eng past) baholash mezonlari asosida o‘lchanadi. Bunda A1/A2 (a‘lo), B3/B4 (yaxshi), C5/C6 (qoniqarli), D7 (fanni o‘zlashtirganlik uchun eng kam ball) hamda E8/F9 (qoniqarsiz) hisoblanadi. Maktablarda yakuniy reyting natijalari to‘plangan ballar asosida belgilanadi. Oliy ta‘limni Singapurda davom ettirish ko‘pchilik o‘ylaganidek murakkab emas. Buning uchun ingliz tilini chuqur bilish lozim. Shuningdek, Singapur universitetlaridan birida o‘qish istagidagi xorijlik abituriyentlardan boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim olganligi to‘g‘risida shahodatnomalar yoki diplom, ingliz tili bo‘yicha bilimini tasdiqlovchi IELTS yoki TOEFL sertifikati talab etiladi. Sertifikat bo‘lmasa, uni olish uchun abituriyent Singapurdagi til o‘rgatuvchi maktablardan birida o‘qishi mumkin.

**Shvetsiya tajribasi:** Shvetsiyada arab tili tarqaganlik bo‘yicha ikkinchi tilga aylanmoqda-davlatda bir necha tillarda so‘z yuritilib kelinadi. Ta‘lim tizimida asosan quyidagi tillar o‘rganiladi- "O‘tgan yili katta miqdorda qochqinlar kelgani e’tiborga olinsa, hozir arab tili, shved tilidan keyin, mamlakatda tarqaganlik bo‘yicha fin tilidan o‘tmoqda", deb aytdi tilshunos. Biroq Shvetsiya mamlakat ahолиси so‘zlashadigan tillar bo‘yicha rasmiy statistika olib bormaydi, chunki bunday statistik ma'lumotlar mamlakatda yashovchi etnik ozchilikni kamsitadi, deb hisoblaydi.

Shuningdek til o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan ommabop usullardan biri – test -sinovi o‘tkazilishidir. Qisqa davr mobaynida til o‘rganuvchilar nutq ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda bu usulning qulayligidan uning tez va keng tarqalish sababini payqab olish mumkin. Testlarning odatda eksperiment oldidan va undan keyin o‘tkazilishi amaliyotda sinab ko‘rilgan. Tajriba-sinovdagi ilmiy farazning tasdiqlanish-tasdiqlanmasligida testning ahamiyati benihoyat kattadir. Test texnika



vositalari bilan yoki bosma materialni oddiy qo'llash bilan o'tkaziladi. Navbatdagi tahliltalab yordamchi tadqiqot metodlaridan yana biri — xronometrajdir. Til o'rganishga yoki ayrim nutq birliklarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt o'lchami xronometraj sanaladi. Uni tadqiqot dasturiga binoan turli usullar bilan o'tkazish mumkin.

**Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,** har bir innovatsion texnologiyani o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu usullarning barchasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, tinglovchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. O'quvchida til o'rganishga bo'lgan kuchli qiziqish va xohish uygonadi, darslarga puxta hozirlik ko'rish va o'z harakatini samarasini ko'rishga intilishi kuzatiladi. Bu esa ta'lim jarayonidagi maqsadga erishishni ta'minlaydi. Ingliz tilini o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan ingliz tili o'qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda samarali qo'llanilishiga bevosita bog'liqidir Ingliz tili predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, ingliz tili o'rgatish ilmi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maximov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
3. Akbarov H.E "O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR" «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\ Volume: 1, ISSUE: 6
4. Ingliz tilini o'qitish bo'yicha loyiha ustida ishlash // INR Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi usuli // INR № 2, 3, 2000
5. Daminova M. Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. –T.;O'qtuvchi , 1993- 96 b.